



XOTIN-QIZLARNING TADBIRKORLIK SOHASIDAGI FAOLIYATLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Uraimjonova Malika Qahramon qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti tarix fakulteti 3-kurs talabasi

malikauraimjonova0109@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7886044>

ARTICLE INFO

Received: 24th April 2023

Accepted: 29th April 2023

Online: 30th April 2023

KEY WORDS

Xotin-qizlar, gender tenglik, ijtimoiy-siyosiy faollik, jamiyat, senat, iqtisodiy faollik, tadbirkor ayol.

ABSTRACT

Maqolada xotin-qizlarning tadbirkorlik sohasidagi faoliyatlarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan bo'lib, ularning jamiyatdagi o'rni hamda tadbirkorlik sohasidagi pozitsiyasi mavjud manbalar asosida tahlil qilingan.

KIRISH

Bugungi global va mintaqaviy ijtimoiy-siyosiy vaziyat, milliy mustaqillik rivojlanishiga ichki va tashqi potensial tahdidlar mamlakat ijtimoiy-siyosiy barqaror taraqqiyotini, ijtimoiy muvozanat, tinchlikni ta'minlash masalasini benihoyat dolzarblashtiradi. Ushbu masala ma'naviy xavfsizlik bilan uzviy bog'liqdir. Zero, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, tinchlik va osoyishtaliksiz ma'naviy xavfsizlik taraqqiyot strategiyasini hayotda qaror topishida qiyinchiliklar tug'diradi. «Mamlakatimizning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini turli tahdidlardan himoya qilish, tinchlik va barqarorlikni yanada mustahkamlash barcha yutuqlarimizning bosh garovidir»¹-deydi Shavkat Mirziyoev.²

Umuman olganda Prezident Sh.M. Mirziyoev siyosiy qarashlarida millat genofondi, eng avvalo, ayol barkamolligi, jismoniy va ma'naviy yetukligi, uning bunyodkorlik va yaratuvchilik imkoniyatlariga bog'liqligi, buni qadrlash va ayollarni jamiyatning teng va faol ishtirokchisiga aylantirish lozimligi yetakchilik qiladi. Zero, faol, harakatchan, tashabbuskor, fikran uyg'oq ayoldan jismoniy sog'lom, aqlan yetuk farzand tug'iladi. Demakki, millatni tubdan yangilash, zamonaviy sivilizatsiya talablariga mos keladigan, mamlakat va jahon taraqqiyotiga muhim hissa qo'sha oladigan, jamiyatda hayotida keskin burilish va innovatsion g'oyalar taklif qilib, burilish yasaydigan avlodni dunyoga keltirish, inson omilini ulug'lash g'oyat muhim hisoblanadi. Demak, bugun hayotimizning o'zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisa Murojaatnomasi Xalq so'zi gazetasi, 2018 yil 29 dekabr, № 271–272 (7229–7230).

² Feruza Davronova "The role of women in providing social sustainability and spiritual safety as a social institution" Society and innovations Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>



maqsad inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda³

Ayni damda jahon miqyosida yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sohalarda tub o'zgarishlar jarayoni har qachongidan ham jadallashgan. Hozirgi zamon taraqqiyotida ayollarning ijtimoiy hayotda faolligi, intellektual bilimi, oilada oqilona ish tutishi hamda davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi globallashuv jarayonida dunyoda ayollar mas'uliyatini oshirish, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyot mezonlaridan biri sifatida baholanmoqda. Shu bois ularning jamiyat ravnaqida tutgan o'rni qator ilmiy tadqiqotlarning dolzarb masalasiga aylandi⁴

Yuqoridagi fikr va g'oyalar ro'yobi yo'lida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ham yuqoridagi xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy ahamiyati va faolligini oshirish maqsadida qabul qilindi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Millatning taqdiri, mamlakatning yorqin kelajagini ta'minlashda avvalo ziyoli ayollarning o'rni benihoya kattadir. Bu haqda alohida to'xtalgan fransuz adibi Onore de Balzak Millatning kelajagi onalar qo'lidadir⁵, deb yozgan edi. Bugungi kunda ko'plab tadqiqotlar asosida oilalarni kuzatishlar orqali qaysi oilada ayol farosatli, didli, adolatli-andishali, ziyoli bo'lib, farzandiga o'z vaqtida ahamiyat qaratib to'g'ri tarbiyalay olsa, ana shu xonadonda ko'proq ma'naviyatli insonlar kamol topishi aniqlandi.⁶

Xotin qizlarning ijtimoiy faollik yo'lidagi harakati dastavval Shimoliy Amerikada, 1775-1783 yillar davomida mustaqillik uchun kurash sharoitida va Fransiyada 1789-1794 yillardagi inqilob davrida vujudga keldi. 1914 yil 8 martda xotin-qizlar kuni bayram sifatida bir vaqtning o'zida 6 mamlakat Avstriya, Vengriya, Belgiya, Germaniya, Niderlandiya, Rossiya va Shvetsariya ilk marta keng nishonlandi⁷. Dastlabki feministlar xotin - qizlarning ezilishi xamda ularning erkaklarga qaramligi sabablarini izlar ekan, ularni ham huquqiy va ijtimoiy jabhalarda ko'radi. Ularning qarashlari feministik dunyoqarash, keyinchalik feministik nazariya shaklini oldi. Biroq, feministlarning xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish va kengaytirish borasidagi chiqishlari jamiyat uchun kutilmagan bo'lib, hammada va hatto ayollar orasida ham ijobiy qabul qilinmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Masalaga metodologik jihatdan yechimlar qidirsh mobaynida mamlakatimizdagi xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z

³ Sh.Mirziyoev. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2018 yil 7 dekabr. «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 8 dekabr, № 253 (7211).

⁴ No'monova D.U O'zbekiston zamonaviy ma'naviy-madaniy taraqqiyotida ayollar mas'uliyatini oshirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili. Fals. Fan.bo'y. falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferatidan., 3-bet., Samarqand-2020

⁵ Sobirova Dिल्фуза To'xtasimovna O'zbekiston ma'naviy-madaniy rivojida xotin-qizlar ishtirokining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati Talim fidoiylari jurnali 2022/mart 81-b

⁶ Hasanova N.M. Onalik zamonaviy sharq ayolining ulkan mas'uliyati. Otmishga nazar 3 jild, 7 son. 71-77 betlar. Toshkent.: 2020

⁷ Jummagul Nomazovna Abduraxmanova Zamonaviy jamiyatda gender tengligi ta'minlash - ustuvor vazifa sifatida ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-400-406



qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganini yana bir bor aytish joiz.⁸

NATIJALAR

Hozirgi davr o'zgarishlari va globallashuv jarayonlarining kengayib borishiga ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ayollarning o'rnini belgilash va bu borada hal etilishi zarur bo'lgan muammolar hamon o'z yechimini kutmoqda.

Ma'lumki, O'zbekistonda xotin-qizlarning mavqei va rolini yuksaltirish, huquq hamda manfaatlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish, umuman, hayotning barcha jabhasini modernizatsiya qilishdagi ishtirokini kengaytirish uchun munosib shart-sharoitlar yaratilgan.

Mamlakatimizda ayollarning kamsitilishini bartaraf etish va ularni mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishga jalb qilish uchun barcha huquqiy asoslar ishlab chiqilgan. Ayollar va erkaklarning tengligi, ayollarni kamsitishga yo'l qo'ymaslik masalalari Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasiga, shuningdek, Mehnat kodeksining 6-moddasiga ko'ra mehnatga oid munosabatlarda xotin-qizlarni kamsitilishi ta'qiqlanadi.

Hozirgi kunda jahon miqyosidagi aholining iqtisodiy faolligini gender yondashuvlari asosida tahlil etadigan bo'lsak, ayollarning mehnatda bandligi tobora ortayotganligini alohida qayd etish kerak. Ayniqsa, O'zbekiston aholisining iqtisodiy faolligida ayollarning salmog'i boshqa davlatlarga nisbatan ancha yuqoriroqdir.

Hozirgi davrga kelib, yer yuzidagi ayollarning 0,4%i O'zbekistonda yashaydi. Mamlakatimiz aholisining 15377,8 nafardan ziyodini ayollar tashkil etib, bu jami aholining 50,2%ni qamrab oladi. Boshqacha statistika bo'yicha aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda 15-65 yoshgacha bo'lganlarning 50,3%ni ayollar tashkil etadi. Shunday ekan, ayollar jamiyatimizning rivojlanishida salmoqli o'rinni egallab kelmoqdalar. Aniqrog'i, ayollar o'z mehnati bilan bozor sub'ektlari tarkibida ishtirok etib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shib bormoqdalar. Masalan, oxirgi yillarda ayollarning ijro hokimiyati organlaridagi ishtiroki 5 barobarga o'sib, 3,4 foizdan 16 foizga chiqdi.

Ayollar milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yangilash borasidagi chora-tadbirlarda faol ishtirok etar ekanlar, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ayollar mehnatining tobora ommalashayotganligi aniq haqiqatdir. Hozirgi kunga tegishli statistik ma'lumotlarga ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda 120 mingdan ziyod, fermer xo'jaliklarida 4550 dan ortiq xotin-qizlar o'z boshqaruvlari asosidagi xo'jaliklarini yuritmoqdalar. Masalan, 2022 yilning o'zida tadbirkor ayollar uchun 1255 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Bu esa 2021 yilga nisbatan olganda 130%ni tashkil yetganligini ko'rsatmoqda.

XULOSA VA MUHOKAMALAR

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni asosidagi keltirilgan muammolarga binoan tahlil qilindi.



Umumiy qilib aytganda jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirishda mamlakatimiz ham xorijiy mamlakat qatorida bormoqda. Bunga yuqoridagi statistik malumotlar va gender tahlillari orqali guvoh bo'lish mumkin. Albatta ushbu jarayon jadalligi va islohotlar ko'lamini oshirishning samarali yo'llaridan biri bu jamiyatda huquqiy ong, madaniyat va axloqiy-estetik normalarni standartlashtirishdir. Shu yo'l bilan xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitda qo'llash va mutloq ijtimoiy tenglikka erishish mumkin.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirdiyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi "Xalq so'zi" gazetasi, 2018 yil 29 dekabr, № 271–272 (7229–7230).
2. Sh.Mirziyoev. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2018 yil 7 dekabr. «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 8 dekabr, № 253 (7211).
3. Denis A. S., BMTTDning O'zbekistondagi vakolatxonasi maslahatchisi "Saylovlar va gender: siyosatda xotin-qizlarni qo'llabquvvatlashning xalqaro va milliy amaliyotlari" uslubiy qo'llanma Toshkent-2021 48-b.
4. No'monova D.U "O'zbekiston zamonaviy ma'naviy-madaniy taraqqiyotida ayollar mas'uliyatini oshirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili. Fals. Fan.bo'y. falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferatidan., 3-bet., Samarqand-2020.
5. Sobirova Dilfuza To'xtasinovna "O'zbekiston ma'naviy-madaniy rivojida xotin-qizlar ishtirokining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati" Talim fidoiylari jurnali 2022/mart 81-b.
6. Feruza Davronova "The role of women in providing social sustainability and spiritual safety as a social institution" Society and innovations Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>.
7. Hasanova N.M. Onalik-zamonaviy sharq ayolining ulkan mas'uliyati. O'tmishga nazar 3 jild, 7 son. 71-77 betlar. Toshkent.: 2020.
8. Jummagul Nomazovna Abduraxmanova "Zamonaviy jamiyatda gender tengligi ta'minlash - ustuvor vazifa sifatida" ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-400-406.
9. Feruza Davronova "The role of women in providing social sustainability and spiritual safety as a social institution" Society and innovations Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index> 7-b.
10. <https://gender.stat.uz/uz/qo-shimcha-ko-rsatkichlar/ijtimoiy>.
11. Cyberleninka.ru
12. Google.com
13. Ziyonet.uz